



Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



VOL. 1, ISSUE 1
The Journal of Academic
Research and Trends in
Educational Sciences

ISSN 2181-2675 www.ijournal.uz

METHODICAL BASES OF PROFESSIONAL COMPETENCE DEVELOPMENT IN TEACHING ART HISTORY LESSONS

F.M. Xolmatova¹

Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

KEYWORDS

education, teaching, human, artist, pedagogue, student, fine arts, history of Fine Arts, higher education, innovation, innovative technology, pedagogical technology, interactive method, information technology, science, knowledge, creativity, ingenuity, professional competence, methodology

ABSTRACT

The article focuses on the development of professional competence in the student by teaching the history of Fine Arts lessons, as well as on the preparation of future teachers for innovative activities, the use of innovative technologies, and pedagogical methods from practical art lessons.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.7139862

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Master of Fine Arts and Applied Decorative Arts, Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan

TASVIRIY SAN'AT TARIXI DARSLARINI O'RGATISHDA KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI

KALIT SO'ZLAR:

ta'lif-tarbiya, dars mashg'uloti, inson, rassom, pedagog, talaba, tasviriy san'at, tasviriy san'at tarixi, oliv ta'lif, innovatsiya, innavatsion texnalogiya, pedagogik texnalogiya, interfaol metod, axborot texnologiyalari, ilm, bilim, ijod, qobiliyat, kasbiy kompetensiya, metodika

ANNOTATSIYA

Maqola tasviriy san'at tarixi darslarini o'qitish orqali talabalrda kasbiy kompetensiyani rivojlantirish, shuningdek bo'lajak o'qituvchilarni innavatsion faoliyatga tayyorlash, amaliy san'at darslaridan innavatsion texnalogiyalardan, pedagogik metodlardan foydalanish haqida fikr yuritilgan

“Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasi, avvalambor, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bog'liq”.²

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi amalga oshirilayotgan xozirgi paytda ijodkor, ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash, ijodiy faoliyatini shakllantirish muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Ta'lif shaxsni shakllantirish va rivojlantirishning asosiy vositasi sifatida qaralmoqda. Xozirgi davrda ayniqsa, ta'lifni insonparvarlashtirish talabalarining bilim olishga bo'lgan intilishidagi shaxsiy faolligini oshirishga qaratilgan. U bilim olish uchun shaxsiy ijodiy izlanish qobiliyatini va imkoniyatini shakllantiradi.

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini takomillashtirish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliv ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash ta'limga texnologik yondashuvni talab etadi. Bunda bevosita ta'lif jarayonini, oliv ta'lifning o'quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullarini keng joriy etish, ilmiy-ta'lif jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish muhim ahamiyatga ega.³

Kompetensiya lotincha “*compete*” so'zidan olingan bo'lib, erishaman, muvofiqman, mos kelaman ma'nolarini anglatadi. Shu bilan bir qatorda kishi egallagan muayyan bilim, ko'nikma, malakalar majmuasi ham kompetensiya sanaladi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'naliш bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishslash va o'z

² Mirziyoyev SH.M. Konstitutsiya-erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. -T.:O'zbekiston. 2017, -22 b.

³ Sharopova Z.F. Ta'lif texnologiyalari. -T.: NAVRO'Z, 2019, -3 b.

faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.⁴

Ma'lumki, oliv ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonini, xususan, tasviriy san'at tarixi o'quv jarayonini modernizatsiyalash, rassom-pedagog bo'ladigan mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat darajasini oshirishda o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-texnik innovatsiyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan sanaladi. Bunda badiiy ta'lim bosqichlarining o'zaro mazmunan bog'liqligi, uzviyliги va uzuksizligini ta'minlash; oliv ta'limda tasviriy san'at o'quv jarayonini tashkil etishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini joriy qilish, bu borada o'quv uslubiy majmular sifatini ta'minlash, pedagogik texnologiyalarini joriy etishda professor-o'qituvchilarning kompyuter va internetdan foydalanish bo'yicha savodxonligini doimiy oshirib borish; oliv ta'limning axborot resurs va zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan ta'minotini yanada rivojlantirish; tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishlarida ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish oliv ta'lim muassasalarida rassom-pedagoglarining faoliyat yo'nalishlari tarkibini belgilaydi.

Ta'lim tizimiga kiritilayotgan har qanday innovatsiya axborot va metodik ta'minotning mavjudligini ko'zda tutadi. Shu sababli, san'at tarixi o'quv jarayoniga innovatsiya kiritishda ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish hamda amaliyotga tatbiq etish, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali o'quv jarayonlari mazmuni va metodlarini takomillashtirish muhim yo'nalishlardan sanaladi. Bu esa o'z navbatida san'at tarixi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning samarali shakllari sifatida ma'ruza trening, videotrening, seminarlar, internet konferentsiyalar, innovatsion o'qitish metodlari sifatida esa muammoli metodlar, interfaol metodlar, amaliy o'yinlar, o'quv loyihalari, portfoliolar, grafik organayzerlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zaruratinini yuzaga chiqaradi.

Innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarning ishlab chiqilishini tashkil etish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini targ'ib qilish va amaliy foydalanish mexanizmlarini shakllantirishda ta'lim texnologiyalarining o'rni va salmog'i yuqoriligini ta'kidlash joiz.⁵

Oliv o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari-interaktiv metodlar, inavatsion texnologiyalarning o'rni va ro'li benixoyat kattadir. Pedagogik texnalogiya, pedagog maxoratiga oid bilim tajriba va interaktiv metodlar talabalarning bilimli yetuk malakaga ega bo'lishlarini taminlaydi.

Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

"Interaktiv" (interfaol) – inglizcha so'z bo'lib, "**interact**"-"**inter**"-bu o'zaro, "**act**"-bu


⁴ Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. -T.: Nizomiy nomidagi TDPU rizografi, 2015, -5 b.

⁵ Sharopova Z.F. Ta'lim texnologiyalari. -T.: NAVRO'Z, 2019, -3 b.

“harakat qilmoq” ma’nosini anglatadi. Umumlashtirganda esa “Interaktiv” (interfaol) – “o’zaro harakat qilmoq” ma’nosini anglatadi.

Dars jarayonida an'anaviy metodlar qo'llanilganda, ta'lim oluvchilarining axborotni eslab qolish ko'rsatkichining eng yuqori darajasi 30% ni tashkil etar ekan. Interfaol metodlar qo'llanilganda esa, ta'lim oluvchilarining axborotlarni o'zlashtirish darajasi yanada ko'tarila boradi. Shuning uchun, an'anaviy metodlar bilan birgalikda interfaol metodlarni birgalikda bir-birini to'ldirgan va uyg'unlashgan holda olib borish maqsadga muvofiqdir.

Misol tariqasida ta'lim oluvchilarining o'quv materialini o'zlashtirish ko'rsatkichlari keltirilgan.





Tasviriy san'at tarixi darslarida rassomlarning asarlarini interfaol metodlarni qo'llagan holda badiiy tahlil, falsafiy-psixologik tahlil qilish o'tilayotgan mavzuni talabalar yaxshi o'zlashtirishida yordam beradi. Tasviriy san'at asarlarini ramziy tahlili, falsafiy-psixologik tahlil qilish orqali talabalarda vatanparvarlik ruhini singdirish, ma'naviyatini boyitish, dunyoqarashini, tasavvurini rivojlantirish, asarning mazmuni ochish hamda talabalarda kasbiy kompetensiyani rivojlantiradi. Quyida “Blits-so'rov” metodini qo'llagan holda Jo'ra Asronning “Imom Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy” asarini falsafiy va psixologgi tahlil qilamiz.

**Jo'ra Asronning "Imom Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy" asarini falsafiy
va psixologgi tahlili.**
(Blits so'rov-Javob usuli)



Nº	Qismlari.	Qismlarining izohi.
1.	 Al-Buxoriy	Jo'ra Asronning "Imom Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil Al-Buxoriy" asari rangtasvirda tarixiy janrda yartilgan. Al-Buxoriy "Hadis ilmida amir al-mo'miniyn" degan sharaflı nomga sazovor bo'lgan.
2.	 Salla	Boshidagi oq rangli salsa-musulmonlik va poklik ramzida berilgan. Musulmonchilikda salsa o'rash sunnat hisoblanib, u o'lim ramzidir. Foniy dunyoda tug'ilish bor ekan, o'lim muqarrardir. ⁶
3.	 Kitob.	Kitob-ilm-ma'rifat, ziyo ma'nolarida berilgan. Kitobning olov rangda berilishi ham bejis emas, olov rangdagi kitob bu-yorqin kelajakni bildiradi. Rassom bu bilan beshikdan qabrgacha ilm izla demoqchi.
4.	 Havorang chapon	Havorang chapon (ko'k)-bu osmon rangiga ishoradir. Osmoniy rang chapon kiygan yoki shu rangli bog'ich bog'lagan oliy himmat, va oliy qadar bo'lsin, va muxtojlarning xojatini chiqarsin. ⁷ Asarda havorang chopon-Al-Buxoriyning oliy himmat, ilm-fan homiysi, muxtojlarga yordam qilguvchi ma'nosida berilgan.

⁶ Bo'latov S.S., Soipova M.S. Badiiy tahlil tamoyillari. -T.: Fan va texnalogiya, 2016, -28 b.

⁷ Bo'latov S.S, Tolipov N.T. Go'zallik falsafasi (monografiya). -T.: Fan va texnalogiya, 2008, -56 b.

5.	 Xassa	Xassa-Tayanch, tirkak, suyanch, e'tiqod ma'nolarida berilgan. Ya'ni o'z qarashlari, o'zligiga umri davomida sobit turgan degan ma'noda berilgan.
6.	 Yashil belbog'	Yashil belbog'-bardamlik, kuch-qudrat ramzi. Shuningdek belbog'ni yashil rangda berilishi buislomiy yo'lida yurganidan darak beradi.
7.	 Namoz	Namoz-ibodatning bir turi, xolos. Namoz, ibodatning ommabop va eng oson turi bo'lgani uchun, xadislarda "namoz ibodatning a'losi" deyilgan. ⁸
8.	 Firavn	Firavn- "buyuk uy", "shoh saroyi", "ulug' xonadon" degan ma'nolarni bildiradi. Shuningdek firavn klassik adabiyotlarda xasislik, yovuzlik ma'nolarida ifodalangan. Bu asarda firavn huzurida musulmonlar boshini tik turgan holatda tasvirlangan. Rassom islom dini, musulmonlar firavndan ustunligi ramziy ma'noda ifodalangan.
9.	 Arablar	Arab xalifaligi-musulmon olamining siyosiy birligi va rahbariyatini namoyish etuvchi islomiy hukumat shaklidir.

⁸ Ziyomuhammedov B. Komillikka eltuvchi kitob. -T.: TURON-IQBOL, 2006, -89 b.

10		Masjid Masjid-Allohnning uyi, halovat maskanidir. Shiningdek asarda masjiddan quyosh nuri taralayotkanini ko'rishingiz mumkin, quyosh nuri ziyo, umid, ishonch ma'nosini bildiradi. Rassom bu bilan islom dinini yaxshilik, ezgulik ramzi ekanligi ko'rsatkan.
11		Tog' Tog'-yuksaklikka intilish, ulug'vorlik, matonat ma'nosida berilgan.
12		Quyosh Quyosh-xayot, yorug'lik, iliqlik, abadiylik ma'nosini anglatadi. ⁹ Rassom asarda quyosh botayotkanni tasvirlagan bu-hayotimiz hamisha yorug' va nurli bo'lmasligini, hech kim abadiy emasligini ramziy ma'noda ifodalagan.
13		Bulut-dunyoning o'tkinchiligi, vaqtning o'tib borishi va inson umriga ishoradir. Hech kimning mangu qolmasligining ramziy ma'nosida berilgan.
14		Olov Olov-Ulug'vorlik, jo'shqinlik ma'nosini bildiradir. Ba'zi manbalarda esa olov hayot va o'limning ramziy ma'nosini ekanligi aytilgan.
15		Karvon Karvon-qadimda buyuk ipak yo'lida karvonda boshqa yurtlarga ilm olish maqsadida borishkan. Rassom karvonni ilm, ma'rifat istagan inson mashaqqatlardan qo'rmasliga ishora qilgan.
16		Jang-asarda jang sahnasi ko'proq qora rangda tasvirlangan. Bu insonlarning qayg'u-alami, iztiroblarining ramziy ma'nosida tasvirlangan.


⁹ Bulatov S.S., Tolipov N.T. Go'zallik falsafasi (monografiya) / -T.: Fan va texnalogiya, 2008, -8 b.

Jang		
17	 Suv	Suv-tiriklik ramzi. Xayot manbai. Inson umrining daryodek oqib o'tishini, o'tkan har bir lahzani ortga hech qachon qaytarib bo'lmasligini ramziy ma'noda ifodalaydi. ¹⁰
18	 Tosh.	Tosh-barqarorlik, davomiylik, ishonchlilik, daxlsizlikning ramziy ma'nosidir. Rassom asarda ilmni barqaror ekanligini, zamon ham makon ham tanlamasligini aytmoqchi bo'lgan.
19	Ranglar.	Moviy rang- Osmon, koinot, tinchlik, yomon ko'zdan asrash ramzi. Yashil rang-islom dining ramzi. Shuningdek yashil abadiy hayot ramzida ham beriladi. Sariq rang-muqaddaslik, yorug'lik, quyosh, kenglik ramzi. Oq rang-poklik, ozodalik, yorug'lik, baxt va omad ramzi. Qizil-g'alaba, iliqlik, hursandchilik, olov va qon ramzi. Tilla rang- ilohiy yog'du ramzi. Qora rang-ayrim hollarda do'zah, Allohdan uzoqlashish, boshqa hollarda qayg'u, alamning ramzida beriladi. ¹¹

¹⁰ Bulatov S.S., Tolipov N.T. Go'zallik falsafasi (monografiya). -T.: Fan va texnalogiya. 2008, -8 b.

¹¹ Bulatov S.S., Salimova S.N., Muxtorov A. Sher dor madrasasi bezaklarining sirli olami. -T.: Talqin, 2007, -14 b.

20



Jo'ra Asronning "Imom Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Al-Buxoriy" asari

Xulosa.

Jo'ra Asronning "Imom Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Al-Buxoriy" asari kontras rangda ishlangan.

Buning ramziy ma'nosi-hayotning bir tekis emasligi, yaxshilik va yomonlik, insonlarning bir xil emasligining ramziy ifodasidir.

Asarning markazida birinchi planda Al-Buxoriy ochiq chehra, yoshi ulug', qo'lida kitob bilan tasvirlangan. Orqa planda tabiat, turli xil din vakillari islam dini, buddaviylik, firavn, arablar shuningdek jang sahnasi, karvon tasvirlangan. Rassom bular orqali Al-Buxoriyning ilm-ma'rifat yo'lida chekkan mashaqqatlarini ko'rsatmoqchi bo'lgan. Shuning asarda har bir element ramziy ma'nolarda ifodalangan. Asarni tahlil qilar ekansiz undan hamma narsaning poydevori ilm ekanligi tushunasiz. Islom dinining asosi ham ilmdir. Hadislarda ham "beshikdan qabrgacha ilm izla" deb bekorga aytilmaganini guvohi bo'lasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya-erkin va farovon hayotimiz, mamlkatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. -T.: O'zbekiston, 2017.
2. Bulatov S.S, Tolipov N.T. Go'zallik falsafasi (monografiya). -T.: Fan va texnalogiya, 2008, 128 b.
3. Bulatov S.S., Soipova M.S. Badiiy tahlil tamoyillari. -T.: Fan va texnalogiya, 2016, 260 b.
4. Bulatov S.S., Salimova S.N., Muxtorov A. Sherdor madrasasi bezaklarining sirli olami. -T.: Talqin, 2007.
5. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. -T.: Nizomiy nomidagi TDPU rizografi, 2015, 120 b.
6. Ziyomuhamedov B. Komillikka eltuvchi kitob.-T.: TURON-IQBOL, 2006, 350 b.
7. Sharopova Z.F. Ta'lim texnalogiyalari. -T.: NAVRO'Z, 2019, 340 b.
8. Ahmedov M.B. Yog'och o'ymakorligi:-T.: Adabiyot uchqunlari.-2017, -221 b.
9. Murotov X.X, Jabborov R.R. "Amali va ba'diiy bezak san'ati" -T.: Ijod-Print nashiryoti,-2020.-160 b.
10. Ahmedov, M.-U., & Xolmatova, F. (2021). TEACHING STUDENTS TO DRAW ELEMENTS OF PATTERNS IN WOOD CARVING CIRCLES. Збірник наукових праць Л'ОГОС. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.17>
11. Talipov, N., & Talipov, N. (2021). CREATIVE TECHNOLOGIES FOR THE

DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE ACTIVITY THROUGH ART EDUCATION. Збірник наукових праць А'ГОС. <https://doi.org/10.36074/logos-19.03.2021.v3.12>

12. Talipov, N. X., & Aliev, N. S. (2021). The importance of perspective in teaching art to future fine arts teachers. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 10(2), 97-103.

13. Талипов, Н., & Талипов, Н. (2021). Проблема исторического жанра в изобразительном искусстве: взгляд на творческую школу художника Малика Набиева. Общество и инновации, 2(4/S), 607-613. <https://doi.org/10.54274/2181-1415-vol2-iss4/S-pp607-613>

14. Saodat Makhkamova Bakhtiyorovna. (2021). QUESTIONS OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR ARTISTIC GAFUR ABDURAKHMANOV ANALYSIS OF WORKS OF FINE ART IN SCHOOL. Euro-Asia Conferences, 5(1), 13–18. Retrieved from <http://papers.euroasiaconference.com/index.php/eac/article/view/437>

15. Valiev, A. (2021). ABOUT THE FEATURES OF THE PERSPECTIVE OF SIMPLE GEOMETRIC SHAPES AND PROBLEMS IN ITS TRAINING. Збірник наукових праць SCIENTIA. вилучено із <https://ojs.ukrlogos.in.ua/index.php/scientia/article/view/10540>

16. Ravshanovich, J. R. (2021). Rangtasvir Taraqqiyotining Ustuvor Yo'naliishlari. Бошқарув ва Этика Қоидалари онлайн илмий журнали, 1(6), 137-148.

17. Jabbarov, R. (2021). Sharq uyg'onish davri yetuk san'atkori buyuk miniatyurachi musavvir Kamoliddin Behzod ijodi ta'sirida yuzaga kelgan o'ziga xos yo'naliish. Жамият ва инновациялар, 2(5/S), 59-67. <https://doi.org/10.54274/2181-1415-vol2-iss5/S-pp59-67>

18. Jabbarov, R. (2019). Formation of Fine Art Skills by Teaching Students the Basics of Composition in Miniature Lessons. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 17(1), 285-288. doi:<http://dx.doi.org/10.52155/ijpsat.v17.1.1424>

19. Nazirbekova, S., Talipov, N., & Jabbarov, R. (2019). Described the Educational, Scientific, and Educational Institutions of the Miniature. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 15(2), 364-367. doi:<http://dx.doi.org/10.52155/ijpsat.v15.2.1192>

20. Абдирасилов, С. Ф., Назирбекова, Ш. Б., & Махкамова, С. Б. (2016). Художественно-культурные традиции узбекского народного искусства на уроках изобразительного искусства. Личность, семья и общество: вопросы педагогики и психологии, (11 (68)), 32-42.

21. Akhmedov Mukhomod-Umar Bakhridinovich. (2022). THE IMPORTANCE OF FOLK APPLIED ART IN THE FORMATION OF YOUTH CREATIVE ACTIVITY. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 3(02), 142-156. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-02-23>

22. Kholmatova Feruza Muhammad Umar Kizi. (2022). METHODOLOGY OF TEACHING STUDENTS TO ARTISTIC PERCEPTION OF PAINTING WORKS IN FINE ARTS CLASSES. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 3(02), 125-135. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-02-21>

23. Нуртаев, У. Н., & Махкамова, С. Б. (2016). Вопросы подготовки студентов к художественно-творческой деятельности. *Молодой ученый*, (7), 687-691.
22. Jabbarov, R., & Rasulov, M. (2021). FURTHER FORMATION OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES BY DRAWING LANDSCAPES IN PAINTING. Збірник наукових праць Л'ОГОΣ. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.09>
23. Fayzullaevich, A. S. (2021). The use of the artistic traditions of uzbek folk art in the lessons of fine art. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(10), 54-61.
24. Абдирасилов, С. (2021). Изобразительное искусство узбекистана в патриотическом и эстетическом воспитании школьников. Збірник наукових праць Л'ОГОΣ.
25. Yusubali o'g'li, Y. S. (2021). Xvi-Xvii Asrlar GArbiy Yevropa Tasviriy San'atida Maishiy Janrning Rivojlanishi. Бошқарув ва Этика Қоидалари онлайн илмий журнали, 1(6), 191-197.
26. Kholmuratovich, M. K., Mardanaqulovich, A. S., Ravshanovich, J. R., Sharifovna, K. U., & Shodiyevna, B. O. (2020). Methodology of Improving Independent Learning Skills of Future Fine Art Teachers (On the Example of Still Life in Colorful Paintings). *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(05).
27. Akhmedov, M.-U., & Kholmatova, F. (2021). FORMATION OF CREATIVE PROCESSES IN STUDENTS THROUGH TEACHING COMPOSITION IN FINE ARTS. Збірник наукових праць Л'ОГОΣ. <https://doi.org/10.36074/logos-09.04.2021.v2.03>